

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA ONA TILI VA O‘QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLASH KO‘NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Il‘yasova Dilshoda Akmal qizi  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti magistranti  
[ilyasovadilshoda@gmail.com](mailto:ilyasovadilshoda@gmail.com)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil ishlarini tashkil qilishning ahamiyati va dolzarbligi, ularni olib borish tartiblari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Mustaqil ishlash tizimining asosiy didaktik vazifalarini – o‘quvchilarning chuqur va mustahkam bilimlarini o‘zlashtirishi, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil bilim olish, kengaytirish va chuqurlashtirish, ularni qo‘llash qobiliyatini shakllantirish usullari xususida to‘xalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil ishlar, pedagogik mahorat, ijod, bilim, qobiliyat.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz”<sup>1</sup> degan da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xitoyning eng mashhur o‘qituvchisi sifatida shuxrat qozongan Konfutsiy, bundan 3500 yil ilgari “ Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam, tushunib yetaman” degan fikri bilan o‘quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishining qay darajada muhimligini isbotlab bergan.

Aynan mustaqil ish aqliy mehnatning yuqori madaniyatini rivojlantirish, bu nafaqat o‘qish, kitob o‘rganish, yozuvlarni yuritish texnikasini, balki, birinchi navbarda, mustaqil faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni, masalaning mohiyatini chuqur o‘rganish istagini o‘z ichiga oladi. Bunday ish jarayonida maktab o‘quvchilarining individual qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlari to‘liq namoyon bo‘ladi, fakt va hodisalarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, mustaqil fikrlashni o‘rgatadi, bu esa ijodiy rivojlanishga va ularni yaratishga olib keladi.

<sup>1</sup> "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli nutqidan

<https://www.norma.uz>

Ma'lumki, darslarda olib boriladigan mustaqil ishlar darsning tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materiallarining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligidan o'rganiladigan har bir mavzuning qiyinlik darajasiga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi.

Bola maktabga kelgach avval o'qish va yozishni o'rganadi. Asta-sekin unda mustaqil kitob tanlay olish, o'qigan kitobini to'g'ri baholay olish kabi ko'nikmalar ham shakllantirilib boriladi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning bosh yo'nalishini mustaqil fikrga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni tashkil etadi. Badiiy adabiyotlarni mutoala qilish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi ta'limining mazmuni va o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablarda "Boshlang'ich ta'lim bolaning mantiqiy tafakkur qilish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini moddiy borliq go'zallilarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi",-deb ta'kidlanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligi ta'lim sohasi bo'yicha tayyorgarlik dajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrli standart o'lchovi orqali aks ettiriladi. Bular:

- O'qish texnikasi;
- O'zgarlar fikri va matn mazmunini anglash;
- Fikrni yozma shaklda bayon etish.

Mustaqil ishlash darslarida o'quvchilar bir mavzuga oid bir nechta asarni o'qib o'rganadilar. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qigan kitobini to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Albatta, sinfdan o'qish darslarida ham mustaqil ishlar uyushtiriladi, o'quvchilarda ma'lum ko'nikmalar hosil qilinadi. Sinfdan tashqari o'qish atamasining ma'nosi ancha keng bo'lib, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari ayni shu darslarda shakllantirilib boriladi.

Darslikdagi o'quv topshiriqlarini bajarishda turli usullar va zehnni o'stiruvchi vositalardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bir soatlik darsda ko'pi bilan 15-20 daqiqagacha diqqatlarini to'play oladilar, shundan so'ng beixtiyor ularning xayollari bo'linadi. Shuni to'g'ri his etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarni bir xil andozada o'tmay, balki rang-barang usullar va uslublar asosida olib borsagina ko'ngildagidek natijaga erishadi. O'quvchilarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi nazariy va amaliy xarakterdagi o'quv materiallarini egallashda, qolaversa, egallangan bilim va ko'nikmalarining qay darajada ekanligini aniqlab olishda mustaqil ishlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarning mustaqil ishlari darsning barcha bosqichlarida olib boriladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o'quvchining ongli ravisda faollik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan vazifadir.

Mustaqil ishni bajarish jarayonida o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga alohida vaqt ajratib e'tibor berish kerak. O'qituvchi ularning ishini alohida nazorat qilishi, yo'l qo'yilayotgan xatolarni bartaraf etishi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatishi, zarur tavsiyalar berishi, belgilangan vaqtda mutaql ishni bajarishlarini ta'minlashi, ularning qiziqishini yanada oshirishga harakat qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda mustaqil ishlarni tashkil qilish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim bo'lgan vazifalardan biridir. U orqali o'quvchilar o'zining shaxsiy fikrini bemalol bildira olish qobiliyatini o'stirilib, tafakkuri yanada boyitiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.
2. Matkarimova D., Mamatqulova N., Mamatjanova N. Ona tilini o'rganamiz. O'quv qo'llanma. O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2013-yil.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005-yil.
4. norma.uz